

Byudjet tashkilotlarida daromad va xarajatlarni taqsimlash asoslari

Gulayda Ómirbaevna Turdieva
gulaidaturdieva@yandex.com
Kamila Askarovna Jaksilikova
kamiaskarovna@gmail.com
Berdaq nomidagi QDU

Annotatsiya: Ushbu mavzu byudjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatida daromadlar manbalari va xarajatlarni shakllantirish hamda ularni taqsimlashning nazariy va amaliy jihatlarini ko'rsatadi. Mavzuda davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladigan jarayonlar, daromadlarni tasniflash, xarajatlarning iqtisodiy mazmuni hamda ularning maqsadli va samarali sarflanishi bo'yicha asosiy talablarga to'xtalib o'tiladi. Shuningdek, byudjet tashkilotlarida xarajatlarni rejalashtirish, smeta tuzish, tasdiqlash, taqsimlash va nazorat qilish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Mavzu davlat moliyasini boshqarish, byudjet intizomini ta'minlash, ochiqlik va samaradorlikni oshirishga qaratilgan yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: byudjet tashkiloti, davlat byudjeti, byudjet daromadlari, byudjet xarajatlari, tasnif (daromadlar va xarajatlar tasnifi), byudjetdan tashqari mablag'lar, moliyaviy tartib, smeta (xarajatlar smetasi), moliyalashtirish, maqsadli xarajatlar, moliyaviy rejalashtirish, xarajatlar nazorati, davlat moliyasini boshqarish, byudjet jarayoni, ochiqlik va samaradorlik

Fundamentals of distribution of income and expenditures in budgetary organizations

Gulayda Ómirbaevna Turdieva
gulaidaturdieva@yandex.com
Kamila Askarovna Jaksilikova
kamiaskarovna@gmail.com
Berdak State University

Abstract: This topic shows the theoretical and practical aspects of the formation of sources of income and expenses in the financial activities of budgetary organizations and their distribution. The topic touches on the main requirements for processes financed from the state budget and extra-budgetary funds, classification of income,

economic content of expenses and their targeted and effective spending. It also considers the mechanisms for planning, estimating, approving, distributing and controlling expenses in budgetary organizations. The topic includes approaches aimed at managing public finances, ensuring budget discipline, increasing transparency and efficiency.

Keywords: budget organization, state budget, budget revenues, budget expenditures, classification (classification of revenues and expenditures), extrabudgetary funds, financial procedure, estimate (expenditure estimate), financing, targeted expenditures, financial planning, expenditure control, public finance management, budget process, transparency and efficiency

Islohotlarning ijobiy natijasi sifatida davlat moliyasini boshqarish tizimini yangi bosqichga olib chiqish va byudjet intizomini yanada mustahkamlash, soliq-byudjet tizimi shaffofligini oshirish maqsadida Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi (DMBAT) va byudjet tashkilotlari avtomatlashtirilgan axborot tizimi (UzASBO) dan foydalanish yo'lga qo'yildi. Natijada, soliq to'lovlarini yagona g'azna hisobvaraqlarida hisobga olish, byudjet tizimi byudjetlari daromad qismining ijrosini ta'minlash, byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasini elektron shaklda yuritish, byudjet tashkilotlarining shartnomalari va hisob-fakturalarini elektron shaklda qabul qilish va qayta ishlash, ularning elektron to'lov topshiriqnomalarini qabul qilish va to'lash kabi davlat byudjeti ijrosiga oid masalalar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, davlat soliq xizmati tashkilotlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish, o'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraqq-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish natijasida 2020-yil 1-yanvardan boshlab barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun hisobvaraqq-fakturalarni elektron shaklda rasmiylashtirish, saqlash va hisobini yuritish tizimi majburiy tartibda joriy etildi.

Shuningdek, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning nutqida "Davlat byudjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qat'iy tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatilishini ta'minlash hammaga ma'lum bo'lgan aniq va qaytarib bo'lmaydigan haqiqat" ekanligini aytib o'tgan edi.

Byudjet tizimi bevosita mamlakat iqtisodiyoti va soliq tizimi bilan uzviy bog'liq hisoblanib, byudjet ijrosini ta'minlashda byudjet tizimining eng quyi bo'g'ini hisoblangan byudjet tashkilotlarining smetalari ijrosini amalga oshirishda xo'jalik yurituvchi subyektlar bilan mahsulot (ish, xizmat) larini sotib olingan mol-mulki miqdoridan kelib chiqib hisob-kitob munosabatlarini yuritadi. Byudjet tashkilotlari bir vaqtning o'zida xo'jalik yurituvchi subyektlar mahsulot (ish, xizmat) larining xaridori yoki o'zi ishlab chiqargan mahsulot (ish, xizmat) larni yetkazib beruvchi sifatida iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirmoqda. Ushbu jarayonda byudjet tashkilotlari va

xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi hisob-kitoblarda hujjatlar aylanishi hamda ularning hisobini yuritish bilan bog'liq murakkabliklar mavjud.

Hozirgi raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir davrda bu muammolarni hal etish, byudjet tashkilotlarida mahsulot yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblarda hujjatlar aylanishini soddalashtirish va ularning hisobini yuritishni takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Bu esa mazkur mavzuda ilmiy tadqiqot olib borish zaruriyati mavjudligini anglatadi. Tadqiqot mavzusiga oid olimlarning tadqiqotlarini ikki qismga ajratgan holda o'rganish maqsadga muvofiq, ya'ni byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish hamda raqamli texnologiyalar yordamida buxgalteriya hisobi tizimida hujjatlar aylanishi va hisob-kitoblarni amalga oshirish. Bevosita, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish bo'yicha xorijiy olimlardan Wan Zuriati Wan Zakaria boshchiligidagi tadqiqotchilar Malayziyaning davlat sektorida buxgalteriya hisobi axborot tizimidagi belgilangan vazifalarning samaradorligini o'rganish bo'yicha tadqiqot olib borgan. Fernando Belfo va Antonio Trigo buxgalteriya hisobi axborot tizimining axborot texnologiyalari yordamida ishlashi bilan bog'liq jihatlarni tadqiq etishgan. Bunda asosiy e'tibor buxgalteriya axborotlarini qayta ishlash va foydalanuvchilarga taqdim etishning zamonaviy integratsiyalashuv tendensiyalari, auditorlik tekshiruvlarida dalil sifatida ko'rish tavsifiya etilgan. T.Poleshchuk va O.Mitina byudjet tashkilotlarining asosiy funksional vazifalari, buxgalteriya hisobi obyektlari va bo'limlarining hozirgi holati bo'yicha o'z ishlanmalarini amalga oshirgan.

Mamlakatimiz olimlaridan M.Ostonokulov byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarni tuzish va byudjet nazoratini amalga oshirish, S.Mehmonov byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish, A.Ostonokulov byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalarini shakllantirish va hisobini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Biroq, hozirgi raqamli iqtisodiyot talablaridan kelib chiqqan holda, davlat byudjet tizimi xususiyatlarini e'tiborga olgan holda byudjet tashkilotlarida tovar yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisob-kitoblarda hujjatlar aylanishini soddalashtirish hamda ularning hisobini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot olib borilmagan.

Byudjet muassasalari daromadlari va xarajatlari smetalari ijrosini amalga oshirishda moliyaviy aktivlar, ya'ni pul mablag'lari hisobi alohida tashkil etiladi. Byudjet muassasalari moliyaviy aktivlariga hisobvaraqlardagi pul mablag'lari, kassadagi pul mablag'lari, pul hujjatlari, yo'ldagi pul jo'natmalari, moliyaviy qo'yilmalar (vaqtincha depozitga qo'yilgan pul mablag'lari) kiradi. Byudjet muassasalari pul mablag'lari harakati moliya organlari tomonidan ochilgan shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi.

1-jadval.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha 2024 yil uchun ajratilgan xarajatlar summasi

Indikatorlar	Respublika byudjeti (mlrd so‘mda)	Qoraqalpog‘iston Respublikasi (mlrd so‘mda)
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash	7 180,43	321,87
Ta‘lim, shu jumladan:	5 054,99	121,83
<i>Umumiy ta‘lim</i>	3 721,5	77,93
<i>Maktabgacha</i>	679,66	31,62
<i>Oliy va o‘rta maxsus</i>	653,84	12,28
Sog‘liqni saqlash	512,03	172,07
Madaniyat	206,25	11,94
Sport	119,13	14,98
Ilm	145,01	0,5
Nafaqalar, moddiy yordam to‘lovlari	1 035,37	0,22

Byudjet muassasalarida shaxsiy hisobvaraqlarni ochish, yuritish, yopish tartibi “Byudjetdan mablag‘ oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlarini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ham, G‘aznachilik va uning hududiy bo‘linmalarida yuritish Qoidalari”ga asosan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha 2024 yil uchun umumiy ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash sohasiga ajratilgan xarajatlar summasi 321 mlrd 870 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, Respublika byudjeti bo‘yicha 7 trln 180 mlrd 430 mln so‘mni tashkil etgan, shu jumladan ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport, ilm-fan, nafaqalar va moddiy yordam to‘lovlariga pul mablag‘lari ajratilganini yuqoridagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkin.

G‘aznachilik va uning hududiy bo‘linmalarida byudjet muassasalari uchun shaxsiy hisobvaraqlar ochilib yuritilar edi. 2011-yildan boshlab byudjet muassasalari pul mablag‘lari hisobini yuritish uchun moliya organlari tomonidan shaxsiy hisobvaraqlar ochilishi belgilandi. Moliya organlari tomonidan ochilgan shaxsiy hisobvaraqlar dasturga kiritiladi va G‘aznachilik (Kaznacheystvo) va ularning hududiy bo‘linmalarida ko‘rinadi.

Byudjet muassasalari shaxsiy hisobvarag‘ining unikal raqami yigirma yetti razryaddan iborat bo‘lib:

Razryad raqamlari													
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
												shulardan	
15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	

1-6 gacha - Tasdiqlangan mablag‘larning manbalari va byudjet darajasi tasnifiga muvofiq mablag‘larning manbalari kodi va byudjet darajasi;

7-9 gacha razryadlar - Tasdiqlangan valyutalar klassifikatoriga muvofiq valyuta kodi:

10-14 razryadlargacha - Tasdiqlangan hududlar tasnifiga muvofiq hududiy tegishlilik kodi:

15-24 razryadlar - byudjetdan mablag' oluvchilar bo'yicha byudjet tasnifining tegishli ko'rsatkichlari kodlari bunda:

15-21 gacha razryadlar mablag'larning vazifasi jihatidan tasnifining tegishli kodi:

22-24 gacha razryadlar - tashkilot tasnifining tegishli kodi:

25-27 gacha razryadlar - byudjetdan mablag' oluvchilarning shaxsiy hisob raqami kodi.

Byudjet muassasalarida pul mablag'lari hisobi byudjet (byudjet tomonidan muassasa xarajatlarini va boshqa tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilgan) va byudjetdan tashqari (ta'lim muassasalarida o'qitishning to'lov-kontrakt shakli, Rivojlantirish jamg'armasi, boshqa maxsus xarajatlar, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi) xarajatlari hisobidan byudjet muassasalari xodimlarining ijtimoiy to'lovlarni qoplash uchun kelib tushgan, chet el valyutasi bo'yicha yuritiladi. Davlat byudjeti g'azna ijrosiga o'tishi munosabati bilan xizmat ko'rsatuvchi banklarda ochilgan byudjet, byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha hisobvaraqlar yopilib G'azna va uning hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy hisobvaraqlarga o'tkaziladi. Natijada G'azna va uning hududiy bo'linmalari tomonidan byudjet muassasalarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini ro'yxatga olib yagona G'azna hisob raqamiga to'lab berilmoqda.

Prezident qarorlari va farmonlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni;

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3802-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 6-oktyabrdagi 807-sonli "Soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnoma. O'z. Res. AVda 22.12.2010 yilda 2169-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan, (17.03.2018 y. AVda 2169-2-son bilan ro'yxatga olingan yangi tahriri)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mehmonov S.U. "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish" i.f.d. diss. avtoref. 76 b. – T., 2018.

2. Ostanaqulov M. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009. 328 b

3. Ostonokulov Azamat Abdukarimovich. Budget Organizations Formation and Improving Accounting for Out-of-Budget Budgets. International Journal of Advanced

Science and Technology. Vol. 29 No. 8s (2020): Vol. 29 No. 8s (2020) Special Issue.
<http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10409>

4. Полещук Т.А., Митина О.В. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях. Учебное пособие. 2020 г. 138 стр.

5. Fernando Belfo, Antonio Trigo Accounting Information Systems: Tradition and Future Directions. Procedia Technology. Volume 9, 2013, Pages 536-546.
<https://doi.org/10.1016/j.protcy.2013.12.060>

6. Wan Zuriati Wan Zakaria, Norazlina Ilias, Norlidawahi Wahab. A Survey on the Impact of Accounting Information System on Tasks Efficiency: Evidence from Malaysian Public Sector Agencies. International Review of Management and Marketing. ISSN: 2146-4405. 2017, 7(1), 183-190.